



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTINING
85 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ III МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ,
ПОСВЯЩЁННОЙ 85-ЛЕТИЮ
ТАШКЕНТСКОГО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА
«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ
ОТРАСЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

ABSTRACT BOOK OF THE 3RD INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE DEDICATED
TO THE 85TH ANNIVERSARY OF THE
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE
“MODERN PHARMACEUTICS:
ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”



TOSHKENT - 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE**

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTINING
85 YILLIGIGA BAG’ISHLANGAN
“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**

**МАТЕРИАЛЫ III МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ,
ПОСВЯЩЕННОЙ 85-ЛЕТИЮ
ТАШКЕНТСКОГО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА
«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

**ABSTRACT BOOK OF THE 3RD INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE DEDICATED TO THE 85TH ANNIVERSARY OF THE
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE
“MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”**

**«IBN-SINO»
TOSHKENT – 2022**

rivojlantirishda muhim dasturlar b'olmoqda .2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-son «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingan bo'lib, unda mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashhis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarni joriy qilish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish kabi vazifalar belgilangandi.

Tadqiqotning maqsadi: oshqozon saratonida qo'llaniladigan dori vositalarining farmakoiqtisodiy taxlilini o'tkazish va ulardan oqilona foydalanish.

Usul va uslublar: ilmiy izlanishlar kontent-tahlil, farmakoiqtisodiy tadqiqot usullari yordamida amalga oshirildi.

Natijalar: oshqozon saratoni eng keng tarqalgan onkologik kasalliklaridan biridir. Oshqozon saratoni onkologik kasalliklar bo'yicha 5-o'rinda (7%), saraton kasalligi tufayli o'lim ko'rsatkichi bo'yicha 3- o'rinda (9%) turadi. Statistika ko'ra, bemorlarning atigi 29 % sogayadi. Metastazlar oshqozon saratoni bilan kasallangan bemorlarning 80-90 %ida kuzatiladi, kasallik erta tashhislanganda 6 oy xayot qolish ko'rsatkichi 65 %ni, jarayonning kech bosqislarida esa 15 %dan kamni tashkil qiladi. Oshqozon saratoni bo'yicha omon qolishning eng yuqori darajasi Yaponiyada (53 %), boshqa mamlakatlarda u 15-20 %dan oshmaydi. U oshqozonning xar qanday qismida rivojlanib, boshqa a'zolariga, ayniqsa qizilo'ngach, o'pka va jigarga tarqalishi mumkin. Dunyoda ushbu kasallikdan xar yili 800 000 dan ziyod odam vafot etadi. Eng ko'p kasallanish 60 yoshdan oshgan kishilarda va erkaklarda ayollarga nisbatan 2 marta ko'prok; kuzatiladi. Oshqozon saratoni ularda 30-39 yoshlilarga nisbatan 20 baravardan ko'prok qayd etilgan. So'nggi 25-30 yil ichida bu xastalik bilan kasallanish va undan o'lim ko'rsatkichohlari butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda xam kamaymokda.

Xulosalar: dori vositalaridan oqilona foydalanish kam xarajatli va samarali dori vositalarini tanlashga asoslanadi. Bu tizim yo'lga qo'yilishi bilan dori vositalarining hammabopligi va bemorlarning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi, davolanishga ketadigan xarajatlar ustidan nazorat o'rnatiladi. Shunday qilib, dori vositalaridan oqilona foydalanish davolash jarayoni sifatining to'xtovsiz oshishi tamoili asosida dori vositalari bilan ta'minlanganlik darajasini boshqarishni ko'zda tutadi. Sog'liqni saqlash tizimidagi moliyaviy cheklanganlik sharoitida aholini dori vositalari bilan sifatli ta'minlanish darajasiga erishish uchun preparatlarni xarid qilishga yo'naltirilgan resurslardan samarali foydalanishni takomillashtirish zarurdir. Oqilona farmasevtik ta'minot va dori vositalarining samarali formulalarini tuzish, bir qancha muhim savollarning tahlili, muhokamasi va echimisiz amalga oshmaydi. Bu muammolarni xal etishda onkologik bemorlarning kasallanish ko'rsatkichlari tahlili katta axamiyat kasb etadi.

НООТРОП ДОРИ ВОСИТАЛАРИ АССОРТИМЕНТИНИНГ ХАРАКТЕРИСТИКАСИ

Арипова Н.Б., Каримова Х.Д., Мухитдинова М.К., Комилов Х.М.

Тошкент фармацевтика институти, Тошкент ш, Ўзбекистон

e-mail: nigora_rg@mail.ru

Долзарблиги. Ҳозирги кунда асаб касалликлари билан оғриган бир қанча беморларда диққатни ёки хотиранинг пасайиши, интеллектуал қобилятни сусайиши, сурункали бош оғриғи, уйқусизлик, кўрқув ҳисси билан намоён бўлувчи турли хил ҳолатлар кuzатилмоқда. Бугунги кунда жаҳон замонавий тиббиёт амалиётида бош мия фаолиятини такомиллаштиришда, асаб касалликларини ва хотирани пасайиши билан кечадиган касалликларни даволашда синтетик дори воситаларидан кўра, кўпроқ доривор ўсимликлар асосида олинган дори воситалари кенг қўлланилиб келмоқда.

Тадқиқотнинг мақсади. Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) ўсимлиги асосида олинган ҳамда бош мия фаолиятини такомиллаштирувчи, ноотроп таъсирга эга ҳамда хотирани тикловчи дори воситалари қаторига кирган дори воситалар ассортимент таҳлилини ўтказиш.

Усул ва услублар. «Дори воситалари ва тиббиёт буюмлари» Давлат Реестрининг 2021 йил 25-сонли сониди таркибиди Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) сақлаган дори воситалари ассортименти халқаро патентланмаган номи, савдо номлари, дори воситаларининг дозаси, дори шакллари ва ишлаб чиқарувчи корхона ҳамда давлатларни ҳисобга олган ҳолда 40 та ассортимент кўрсаткичини ташкил қилди. Мазкур дори воситаларидан 26 та ассортимент кўрсаткичи, яъни умумий тинчлантирувчи дори воситаларининг умумий миқдорини 65% ни узоқ хорижий ишлаб чиқарувчи фармацевтика корхоналарининг маҳсулотлари ташкил қилади. МДХ мамлакатлари фармацевтика ишлаб чиқарувчи корхоналарининг *Ginkgo biloba L.* сақлаган дори воситалари 1 та ассортимент кўрсаткичида қайд этилган ва бу кўрсаткич умумий фоиз миқдорда 2,5% ни ташкил қилди. Маҳаллий фармацевтика ишлаб чиқарувчи корхоналари томонидан 13 та *Ginkgo biloba L.* сақлаган дори воситалари қайд этилган ва мазкур дори воситалари умумий 32,5% ни ташкил қилади. «Дори воситалари ва тиббиёт буюмлари» Давлат Реестрида қайд этилган *Ginkgo biloba L.* дори воситаларининг ассортименти қуйидаги дори шаклларида тақдим этилганлиги аниқланди: капсула - 62,5%, таблетка - 15%, сироп - 17,5%, ичга қўлланадиган томчилар - 5%. Маълумотлар таҳлил қилинганда, энг кенг тарқалган дори воситаларининг дори шакли – капсула (якка таркибли, кўп таркибли дамламалар) эканлиги аниқланди. Беморлар томонидан хотирани тикловчи ва ноотроп таъсирга эга дори воситалари узоқ муддат қабул қилинишини инобатга олган ҳолда, капсула, таблетка дори воситаларининг энг оқилона дори шакли эканлиги, шунингдек, иктисодий тежамли ва бемор томонидан қўллашга қулай дори шакллари саналади.

Натижалар. Илмий тадқиқот иши давомида маҳаллий фармацевтика ишлаб чиқарувчи корхоналари томонидан Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) биологик фаол субстанциясини сақлаган дори воситаларининг капсула ва таблетка дори шакллари ишлаб чиқариш оптимал дори шакли эканлиги аниқланди. Шу муносабат билан кейинги тадқиқот ишларида Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) ўсимлиги хомашёлари асосида ноотроп ва бош мия фаолиятини фаоллаштирувчи хоссага эга таблетка ва капсула дори шаклига эга бўлган дори воситаларини ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Хулосалар. Илмий изланишда тақибда Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) биологик фаол субстанциясини сақлаган дори воситалари умумий ассортимент кўрсаткичининг дори шаклларига оид таҳлили ҳамда Гинкго билоба (*Ginkgo biloba L.*) сақлаган дори воситаларининг ассортиментини ишлаб чиқарувчи мамлакатлар кесимида таҳлили натижалари ёритиб берилди.

ALLERGIYAGA QARSHI VOSITALARNING FARMATSEVIKA BOZORIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI


Saidova M.YA., Ziyamuxamedova R.M., Abdurazzaqova N.I.
Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O‘zbekiston Respublikasi
e-mail: abdurazakovanodira2@gmail.com

Dolzarbli: bugungi kunda allergik kasalliklar sonining ortib borishi ko‘plab mamlakatlarda global muammo sifatida qaralmoqda. Allergik kasalliklarni davolashda ishlatiladigan asosiy farmakologik guruh “Allergiyaga qarshi vositalar” guruhi preparatlari bo‘lib, ular assortimentining mahalliy bozorda o‘shish dinamikasini o‘rganish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida allergiyaga qarshi vositalar guruhining marketing tahlilini o‘tkazish.

Usul va uslublar: tadqiqot ob‘ekti sifatida “Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan дори vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri”ning 2019-2021 yillardagi sonida keltirilgan ma‘lumotlaridan, farmatsevtika bozori holatini monitoring qilishda ularni tasniflanishi, guruhleri va tizimli tahlilidan foydalanildi.

Natijalar: allergiyaga qarshi vositalar farmakoterapevtik guruhiga mansub дори vositalari ishlab chiqaruvchilar, doza va shakllarini hisobga olgan holda 29 ta ishlab chiqaruvchi davlatlar tomonidan 225 xil savdo nomi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. 2019-2021 yillarda xorijiy ishlab chiqaruvchilar – 50,54% dan 53,33 %ga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar – 27,42 %dan 31,11 %ga ko‘tarilgani va MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari esa 22,04 %dan 15,56 %ga pasayganligi kuzatildi. Marketing tahlil natijalariga ko‘ra, mahalliy farmatsevtika bozoring 2,2 %ni antiallergik дори vositalari tashkil etadi. Ushbu guruh дори vositalarini 2021 yil xolatiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilish ko‘rsatkichlariga ko‘ra, xorijiy ishlab chiqaruvchi davlatlar – 53,30 % (120 ta), mahalliy ishlab chiqaruvchilar – 31,1% (70 ta) va MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari esa 15,50 % (35 ta)ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.



Rasm. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan antiallergik дори vositalarini ishlab chiqaruvchi davlatlar foiz ko‘rsatkichlari.

Xulosalar: mahalliy farmatsevtika bozorida antiallergik ta’sirga ega дори vositalariga bo‘lgan ehtiyojning asosiy qismini import (53,30%) дори vositalari egallayotgani, o‘tgan yillarga nisbatan mahalliy farmatsevtika korxonalarining ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘rtacha 3,69% ga ko‘tarilganligi ko‘rindi.

ONKOGEATOLOGIYADA QO‘LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING ABC / VEN TAHLILINI O‘TKAZISH

Abdurazakova N.I., Sultanova G.A., Ikramova G.M.
Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O‘zbekiston Respublikasi
e-mail: abdurazakovanodira2@gmail.com

Dolzarbli: hozirgi kunda sog‘liqni saqlash sohasiga davlat tomonidan ajratiladigan budjet ajratmalarini tejamkorlik bilan taqsimlash, ulardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sharoitda davolash-profilaktika